



TA'LIMDA TILLARNI O'QITISHNING MUAMMO VA YECHIMLARI
XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI ISHLAR VAZIRLIGI

JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI



YEVROPA VA TURKIY TILLAR KAFEDRASI

O'ZBEK VA RUS TILLARI KAFEDRASI

**TA'LIMDA TILLARNI O'QITISHNING
MUAMMO VA YECHIMLARI
(ПРОБЛЕМЫ ЯЗЫКОВОГО ОБУЧЕНИЯ
И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ/
PROBLEMS OF LANGUAGE LEARNING
AND WAYS TO SOLVE THEM)**

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

TO'PLAMI



2026-YIL
4-IYUN



TOSHKENT
2026

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining Yevropa va turkiy tillar kafedrası hamda O'zbek va rus tillari kafedrası tomonidan 2026-yil 4-iyunda o'tkazilgan **"Ta'limda tillarni o'qitishning muammo va yechimlari (проблемы языкового обучения и пути их решения// problems of language learning and ways to solve them)** mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to'plami JIDU Ilmiy muvofiqlashtiruvchi kengashning 2026-yil 26-iyundagi 24-sonli majlisi qarori bilan nashrga tavsiya etildi.

"Ta'limda tillarni o'qitishning muammo va yechimlari (проблемы языкового обучения и пути их решения// problems of language learning and ways to solve them) mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to'plami // – Toshkent: JIDU, 2026. – 396 bet.

Mas'ul muharrir:

O'zbek va rus tillari kafedrası mudiri, dotsent
Yevropa va turkiy tillar kafedrası mudiri,
dotsenti, f.f.n
Oliy ta'limdan keyingi ta'lim ofisi boshlig'i, s.f.n.

M.Abduraxmanova

V.Mamatkasimova

M. Siddiqova

Taqrizchilar:

P.Nishonov – O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti fransuz tili (amaliy fanlar) kafedrası professori, f.f.n.

Sh.U.Narmatova – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining O'zbek va rus tillari kafedrası dotsenti, f.f.n.

Ushbu ilmiy-amaliy konferensiyaning maqolalarini tahlil qilish va chop etishga tavsiya etish uchun tahririyat–noshirlik guruhi:

Sh.A. Xasanova – Yevropa va turkiy tillari kafedrası katta o'qituvchisi, f.f.f.d.(Phd)

G.Yu.Rofiyeva – Yevropa va turkiy tillari kafedrası katta o'qituvchisi, f.f.f.d.(Phd)

II SHU'BA

SUN'IY INTELLEKT VOSITALARINING CHET TILI O'QITISHDAGI DIDAKTIK IMKONIYATLARI

TIL TA'LIMIDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH: TAHLIL VA TAHRIR KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Abduraxmanova Mexribon,

JIDU O'zbek va rus tillari kafedrası dotsenti

Annotatsiya

Mazkur maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining til ta'limidagi o'rni, xususan, generativ sun'iy intellekt vositalaridan (ChatGPT, Gemini, Claude va boshqalar) yozma nutqni rivojlantirish jarayonida foydalanishning metodik jihatlari tahlil qilinadi. Maqolada sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan matnlarni tahlil qilish va tahrirlashga yo'naltirilgan topshiriqlarning talabalarda grammatik, uslubiy va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ahamiyati misollar asosida yoritiladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, til ta'limi, til o'qitish metodikasi, yozma nutqni shakllantirish, tahlil kompetensiyasi, tahrir ko'nikmalari, lingvodidaktika, raqamli ta'lim, tanqidiy fikrlash, ChatGPT

Abstract

This article examines the role of artificial intelligence technologies in language education, particularly the methodological aspects of using generative artificial intelligence tools (such as ChatGPT, Gemini, Claude, and others) in the process of developing writing skills. The study illustrates, based on examples, the significance of tasks aimed at analyzing and editing AI-generated texts in fostering students' grammatical, stylistic, and critical thinking competencies.

Keywords: artificial intelligence, language education, language teaching methodology, writing skill development, analytical competence, editing skills, linguodidactics, digital education, critical thinking, ChatGPT

Sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi til ta'limining maqsad va vazifalarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. An'anaviy yondashuvlarda o'qituvchining vazifasi asosan grammatik va imlo qoidalarini o'rgatish, matn tuzish, tarjima qilish, umumiy olganda, yozma va og'zaki nutqni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lsa, bugungi kunda generativ sun'iy intellekt ushbu vazifalarning muayyan qismini avtomatlashtirish imkoniyatini yaratmoqda. Shu nuqtayi nazardan til ta'limi konsepsiyasi eskirdimi, degan savol tug'ilishi o'rinli. Haqiqatan ham, sun'iy intellekt texnologiyalari hozirgi kunda, xususan, katta til modellari (ChatGPT, Gemini, Claude va boshqalar) o'zbek tilidagi matnlarni (fikir yoki jumlan) usluban aniq va to'g'ri yaratishda yordamchi bo'la oladimi? Ular matndagi uslubiy noaniqliklar, ortiqcha takrorlar, grammatik xatolarni bartaraf etgan holda, ruscha yoki inglizcha sintaktik qoliplar va murakkab qo'shma gaplarni o'zbek tili qonuniyatiga mos ravishda tarjima qilib, adabiy tilda uslub talablariga muvofiq matn tuzib berish imkoniyatiga egami? Nima sababdan imkoniyatlar kengayishi sharoitida kognitiv rivojlanish va savodxonlik darajasining pasayish tendensiyasi kuzatilmoqda? Maqolamizda mana shu masalalarni tahlil qilishga va umumiy xulosalar berishga urinib ko'ramiz.

Sir emaski, hozirgi kunda raqamli ta'lim muhitida talabani mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvga o'rgatish, jumladan, matn yaratish (esse, hikoya, maqola va b.), matnni tarjima qilish ko'nikmalarini hosil qilish ancha mushkul. Internet va sun'iy intellekt vositalari kerakli ma'lumotni soniyalar ichida taqdim etyapti. Bu esa talabanning ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlanishiga to'siq bo'lishi bilan bir qatorda, ularda oddiy yangi bilimlarni o'zlashtirish zarurati qolmadi degan fikrni shakllantirmoqda. Ayniqsa, til mashg'ulotlarida (bu yerda biz C1, C2 darajada til o'rganishni nazarda tutyapmiz - A.M.) SI dan foydalanish talabanning kognitiv faolligiga ma'lum darajada salbiy ta'sir ko'rsatyapti, xususan, tayyor javoblar va

avtomatlashtirilgan yechimlarga muntazam murojaat qilish mustaqil izlanish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, dalillarni tanqidiy baholash, original g'oyalarni shakllantirish hamda fikrni to'g'ri va aniq bayon eta olish ko'nikmalarining yetarli darajada rivojlantirmayotgani bilan birga oddiy savodxonlik darajasining pasayishiga sabab bo'lmoqda.

Ayrim tadqiqotchilar sun'iy intellektning ta'lim samaradorligini oshirishdagi imkoniyatlarini ta'kidlasalar, boshqalari unga haddan tashqari tayanish kognitiv faollikning ayrim jihatlarini cheklashi mumkinligini qayd etmoqdalar. Albatta, bu borada bahsli-munozarali fikrlar ko'p, lekin biz maqolada generativ sun'iy intellektidan til ta'limida, xususan, o'zbek tilida yozma nutqni rivojlantirish maqsadida foydalanishning ayrim metodik jihatlarini tahlil qilish bilan birga, sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan matnlarni tahrirlash va tahlil qilishga asoslangan topshiriqlar orqali talabaning til kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlarini misollarda ko'rib chiqmoqchimiz. Zero texnologiyalar jadal rivojlanayotgan bir paytda o'qitish metodikalarining yangilanish sur'ati nisbatan sekin kechmoqda. Aynan mana shu tafovut ta'lim amaliyotida qator muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Misol. Zamonaviy raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt vositalaridan oson foydalanish imkoniyatining mavjudligi an'anaviy topshiriqlarning samaradorligini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Xususan, til o'qitish amaliyotida keng qo'llanadigan *“gap yoki kichik matn tuzing”* turdagi topshiriqlar talabaning mustaqil fikrlashi, so'z boyligini faollashtirishi hamda grammatik shakllarni to'g'ri qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilsa-da, amaliyotda talaba ularni mustaqil bajarish o'rniga sun'iy intellekt tizimlari yordamida tayyor *“mahsulot”* sifatida olib taqdim etmoqda. Shu bois topshiriqning maqsadi va shaklini qayta ko'rib chiqish zarurati yuzaga keladi. Masalan, talaba tomonidan yaratilgan matnni baholash o'rniga sun'iy intellekt tomonidan tayyorlangan matnni tahlil qilish, undagi xatolarni aniqlash va tahrirlashga yo'naltirilgan vazifalar samaraliroq bo'lishi mumkin. Bunday yondashuv talabaning materialni grammatik, uslubiy va mantiqiy tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish

bilan birga, sun'iy intellektdan ongli va tanqidiy foydalanish madaniyatini ham shakllantiradi.

1-misol. SI: *2025 yilda xavf guruhidagi 12 milliondan ortiq fuqarolar profilaktik ko'rikdan o'tkazildi. (Talabaning yozma ishidan)* Ushbu gapda -lar ko'plik qo'shimchasining qo'llanishida xato bor va aksariyat holda SI aynan shu xatoga yo'l qo'yadi. Talabaga otdan oldin miqdorni ifodalovchi so'z kelganda -lar ko'plik qo'shimchasining ishlatilmasligini eslatib o'tamiz. (yana bir xato: odatda SI tomonidan tayyorlangan lotin yozuvidagi matnlarda imlo xatolari kam uchraydi, biroq qoidalardagi istisno holatlarda xato kuzatilishi mumkin, masalan berilgan gapda yildan keyin chiziqli (-)yo'qligi kirill yozuviga asoslangan alifboning imlo qoidasi bilan adashtirish oqibati va b.).

soha atamalarini har doim ham aniq tanlamasligi kuzatiladi. Atamalar bilan ishlashda quyudagi turdagi vazifalar so'z boyligini oshirish bilan birga, lug'at bilan ishlash ko'nikmalarini ham shakllantiradi.

2-misol. SI: *Global geoiqtisodiy chaqiriqlar fonida O'zbekiston iqtisodiyoti o'z barqarorligini saqlab qolmoqda, amalga oshirilgan islohotlarning ijobiy ta'siri esa nafaqat makroiqtisodiy ko'rsatkichlarda, balki aholining turmush sifatida ham namoyon bo'lmoqda. (Talabaning yozma ishidan).*

Yana bir ko'p uchraydigan xatolardan biri atamalarining no't'g'ri tanlanishidir. Ushbu gapdagi “*chaqiriq*” so'zi rus tilidagi “*бызоб*” atamasining bevosita tarjimai sifatida qo'llangan bo'lib, yuqoridagi matn mazmuniga mos emas. Talaba mustaqil ravishda to'g'ri xulosa chiqarishi uchun lug'at bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish maqsadga muvofiqdir. So'zning lug'atda berilgan barcha izohlarini tahlil qilish natijasida “*chaqiriq*” so'zi asosan “*da'vat, murojaat yoki chaqirish*” ma'nolarini ifodalashini bilib, berilgan matndagi xatoni topadi. Keying bosqichda maqbul so'zni (bu matnda: muammo, xatar, tahdid, beqarorlik omillari va boshqalar) tanlab, matnni tahrir qiladi. Bu kabi topshiriqlar lug'at bilan ishlash, semantik tahlil qilish va terminlarni to'g'ri qo'llash kabi muhim kompetensiyalarni rivojlantirishda samarilidir. Bunda asosiy maqsad sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan matnni to'g'ri variant sifatida qabul qilish emas, balki uning

sifatini baholash va takomillashtirishdan iborat bo‘ladi. Matn ustida ishlash talabaga o‘z intellektual resurslaridan to‘liq foydalanish lozimligini qayd etishi bilan bir qatorda sun‘iy intellektni ta‘limga to‘g‘ri integratsiya qilishning metodlaridan biridir. Zero sun‘iy intellektidan samarali foydalanish bilan birga talabalarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va muammoga yechim topish kabi muhim aqliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan ta‘lim metodlarini yaratish til ta‘limi oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir.

Shuning uchun hozircha sun‘iy intellektni muallif yoki muharrir o‘rnini bosuvchi emas, balki akademik matnlarni takomillashtirishga xizmat qiluvchi intellektual yordamchi vosita sifatida baholash maqsadga muvofiq. Biroq taraqqiyot to‘xtamaydi. Bugungi kunda sun‘iy intellekt algoritmlari ko‘p hollarda yirik ma‘lumotlar bazasi asosida ishlaydi. Kontenti ko‘p bo‘lgan tillar algoritmik ustunlikka ega bo‘lmoqda. Demak, kelajakda o‘zbek tilida katta hajmdagi raqamli milliy korpus bazasining shakllanishi til ta‘limi oldiga yangi vazifalarni qo‘yadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Стрельников Сергей Сергеевич, Вохминцев Андрей Петрович, Каткова Алла Леонидовна, Ушакова Ольга Михайловна (2024). Потенциал влияния ИИ-грамотности на информационное поведение студентов. Мир науки. Педагогика и психология, 12 (4), 80.

2. Тихонова Наталия Владимировна, & Сабирова Диана Рустамовна (2025). Грамотность педагога в области искусственного интеллекта: теоретический анализ понятия. Образование и наука, 27 (6), 180-206. doi: 10.17853/1994-5639-2025-6-180-206

3. Shirinova, Feruza Atxamovna (2026). Sun‘iy intellektning chet tilini o‘qitishdagi yutuqlari va kamchiliklari. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 6 (2), 379-384.

4. O‘zbek tilining izohli lu‘gati. T,2023